DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
<i>Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
<i>Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li</i>	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
<i>Akramov Toxir Abdiraxmanovich</i>	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
<i>Adashev Azimjon Urinboyevich</i>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
<i>Abdunazarova Dilshoda Akromovna</i>	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
<i>Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi</i>	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
<i>Ismoilova Feruza Kubaymurodovna</i>	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
<i>Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li</i>	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
<i>Mdraximova Shohista Bahrom qizi</i>	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
<i>Mavrulov Ravshan Nematjonovich</i>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLÖM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
<i>Sultonov Baxtiyor Baxodirovich</i>	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
<i>Duschanov Alisher Sherzod o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
<i>Opaev Bysen Aymanovich</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
<i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	1218
<i>M.M.Muminova</i>	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
<i>Худаярова Мехрангиз Мурадовна</i>	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
<i>Raxmatov Aziz Tolipovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
<i>Smaylova Zarafshan</i>	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
<i>Abdunazarov Dilshoda Akromovna</i>	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDDIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмутходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyurov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOYIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOYIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinova	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	



TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI

Sanakulova B. R.

iqtisod fanlari doktori, professor
Alfraganus University

Jamolov M.M.

Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti
yetakchi mutaxassis

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi tashqi davlat qarzining valyuta tarkibini o'rganishga bag'ishlangan. Ishning maqsadi qarz mablag'larini qaysi valyutalarda jalb qilish maqsadga muvofiqligini va valyuta kurslarining o'zgarishi tashqi qarz dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat. Tahlil uchun omillarning dinamik ta'siri va endogenligini hisobga olgan holda ikki qadamli regressiya usuli (2SLS) bilan baholangan ekonometrik model qo'llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSH dollarida tashqi qarzlarni jalb qilish umumiy tashqi qarzning o'sishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi, ayrim boshqa valyutalarda (masalan, Xitoy yuani, Janubiy Koreya voni) qarz olish esa statistik jihatdan qarz yukining sezilarli darajada oshishiga olib kelmaydi. Olingan natijalar asosida qarz barqarorligini ta'minlashning chegaraviy yondashuvi taklif etiladi: tashqi qarzning kritik darajasi YAIMning 40 foizlik ulushi sifatida belgilandi. Bu berilgan shartlar asosida ushbu yilda jalb qilinishi mumkin bo'lgan yangi tashqi qarzlarning maksimal hajmi taxminan 5,2 milliard AQSH dollariga teng bo'lishini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: tashqi qarz, YAIM, valyuta tarkibi, qarz yuki, regressiya, ekonometrik model.

Abstract. This article is devoted to studying the currency structure of the Republic of Uzbekistan's external public debt. The aim of the study is to determine the most appropriate currencies for borrowing and how exchange rate fluctuations affect the dynamics of external debt. An econometric model estimated using the two-stage least squares (2SLS) method was used for the analysis, taking into account the dynamic impact and endogeneity of factors. The results of the study show that borrowing external debt in US dollars has the greatest impact on the growth of total external debt, while borrowing in some other currencies (e.g., Chinese yuan, South Korean won) does not statistically lead to a significant increase in the debt burden. This means that the maximum amount of new external borrowing that can be raised this year under these conditions will be approximately US 5.2 \$ billion.

Key words: external debt, GDP, currency structure, debt burden, regression, econometric model.

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование валютной структуры внешнего государственного долга Республики Узбекистан. Для анализа используется эконометрическая модель с применением метода двойной квадратичной регрессии (2SLS) с учетом динамических влияний и эндогенных факторов. Результаты исследования показывают, что наибольшее влияние на реальный государственный внешний долг оказывают привилегированные внешние займы и доллар США, а также некоторые другие валюты (например, китайский юань, корейская вона), которые статистически приводят к значительному увеличению долговой нагрузки. Это означает, что максимальный объем новых внешних займов, которые могут быть предоставлены в текущих условиях, составляет около 5,2 млрд долларов США.

Ключевые слова: внешний долг, ВВП, структура валюты, долговая нагрузка, регрессия, эконометрическая модель.

KIRISH

Davlatning tashqi qarzi ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari (xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlardan olingan qarzlar) hisobiga shakllanadi hamda milliy va xorijiy valyutadagi majburiyatlar yig'indisi sifatida qaralishi



mumkin. Shu bois, jalb qilingan valyuta almashuv kursining barqarorligi, shuningdek, tashqi foiz stavkasining inflyasiya darajasi va ichki stavkalardan past bo'lishi davlat qarz yukining keskin oshishining oldini olishga yordam beradi. Tashqi qarzning valyuta tarkibini tahlil qilish, ya'ni qaysi mamlakat valyutasi barqarorroq ekanligini va o'sha mamlakat bilan tashqi savdoda ijobiy saldo mavjudligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu omillar tashqi qarz hajmining o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, qarz dinamikasiga o'tgan davrlardagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi (inersion samara). Shu munosabat bilan, omillarning dinamik ta'siri va mumkin bo'lgan endogenligini hisobga olgan holda, tadqiqotda quyidagi gipoteza ilgari surilgan: tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi valyuta kursiga ta'sir qiladi va milliy valyutaning devalvatsiyasi tashqi qarz miqdorining (YAIMga nisbatan ulushda) kritik darajadan og'ishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashqi qarz valyuta tarkibining qarz barqarorligiga ta'siri zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Markaziy konsepsiyalardan biri Eichengreen va Hausmann (1999) tomonidan kiritilgan "original sin" bo'lib, unga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar o'z valyutasida qarz olishning cheklangan imkoniyatiga duch kelishadi. Bu yuqori valyuta riskiga olib keladi, chunki qarzga xizmat ko'rsatish mamlakat to'g'ridan-to'g'ri nazorat qila olmaydigan valyutada amalga oshiriladi. Keyingi tadqiqotlar (Eichengreen, Hausmann & Panizza, 2003) shuni ko'rsatdiki, milliy valyutada qarz olishning asosiy omili institusional xususiyatlar emas, balki iqtisodiyotning hajmi hisoblanadi.

Reynxart, Rogoff va Savvastano (2003) tomonidan yana bir muqobil nuqtai nazar taqdim etilgan bo'lib, ular "qarzni ko'tara olmaslik" (debt intolerance) tushunchasini shakllantirgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, hatto mo'tadil tashqi qarz darajasi ham makroiqtisodiy siyosatga ishonch darajasi past bo'lgan mamlakatlarda fiskal jihatdan beqaror bo'lishi mumkin. Shunday qilib, barqarorlik masalasi nafaqat qarzning valyuta tarkibiga, balki iqtisodiy institutlarning sifatiga ham ta'sir qiladi.

Goldsteyn va Turner (2004) majburiyatlar va eksport tushumlari o'rtasidagi valyuta nomuvofiqliklariga (currency mismatches) e'tibor qaratib, aynan ular inqirozlarning chuqurligini kuchaytirishini ta'kidlaganlar. Bu daromad manbalari va qarz tarkibi o'rtasidagi valyuta muvofiqligining muhimligini ta'kidlaydi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, XVJ va Jahon bankining yondashuvlari Qarz barqarorligi doirasida aks ettirilgan. Modelda devalvatsiyaning qarz dinamikasiga ta'sirini baholovchi stress-testlar ko'zda tutilgan va ichki qarz bozorini rivojlantirish orqali FX-qarz ulushini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Janna va Guskinalarning ishlari (IMF Working Paper, 2006) rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida milliy valyutadagi qarzni mahalliyashtirish bo'yicha mo'tadil tendensiya mavjudligini tasdiqlaydi.

So'nggi tadqiqotlar (Fujii, 2015) ham devalvatsiya ta'siri qarz valyutalari va eksport tushumlarining muvofiqligiga bog'liqligini tasdiqlaydi. Ular bir-biridan farq qilganda valyuta zaifligi kuchayadi va tashqi tuzatish imkoniyati kamaytiradi.

Shunday qilib, ilmiy va institusional adabiyotlar tashqi qarzning valyuta tarkibiga muvozanatli yondashuv zarurligini ko'rsatadi, jumladan, FX-qarzlarni hajmini nazorat qilish, eksport tushumlari bilan muvofiqlashtirish va milliy valyutada qarz olishni rivojlantirish kerakligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tashqi qarz valyuta tarkibining uning barqarorligiga ta'sirini empirik tahlil qilish uchun O'zbekiston bo'yicha so'nggi besh yildagi choraklik ma'lumotlar asosida tuzilgan regressiya modelidan foydalanildi. Model tashqi qarzning o'sishini valyuta kurslari, eksport hajmi, valyuta zaxiralari va asosiy kreditor mamlakatlar bilan savdo aylanmasidagi eksport ulushining funksiyasi sifatida tushuntiradi.

Tadqiqot qarz dinamikasining inersion xarakterini va ba'zi omillarning potensial endogenligini hisobga oladi. Shu munosabat bilan baholash ikki usulda amalga oshirildi: eng kichik kvadratlar usuli (OLS) - asosiy spesifikatsiya sifatida va endogen o'zgaruvchilar mavjud bo'lganda ikki qadamli eng kichik kvadratlar usuli (2SLS).

Interpretatsiyalanishni oshirish uchun o'zgaruvchilar logarifmik shaklga keltirildi. Diagnostik testlar (Hausman, VIF, RESET testlari) modelning yaroqliligini tasdiqladi: multikollinearlik maqbul darajada bo'ldi, omillarning endogenligi aniqlanmadi, model spesifikatsiyasi to'g'ri. Batafsil tahlil qilish uchun tashqi qarzning valyuta bo'linishini hisobga oluvchi kichik modellar ham tuzildi. Bu alohida valyutalarda (USD, EUR, JPY va boshqalar) qarz olishning umumiy qarzдорlik darajasiga ta'sirini umumiy ko'rsatkichlarning agregatsion ta'sirini istisno qilgan holda baholash imkonini berdi. Shunday qilib, uslubiy yondashuv valyuta omillari va savdo aloqalarini hisobga olgan holda makroiqtisodiy spesifikatsiyani birlashtiradi va valyuta tuzilmasining qarz barqarorligiga tabaqalashtirilgan ta'sirini o'rnatishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qaysi valyutada qarz jalb qilish foydali ekanligini ekonometrik modeli asosida tahlil etishga turli yondashuvlar mavjud. Shulardan biri "Origion sin" hisoblanadi. Unga ko'ra, milliy valyutada qarz jalb qilish moliyaviy riski kamaytiradi. Xorijiy valyutada qarz jalb qilishning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy xavflari mavjud bo'lsada, ma'lum afzalliklarga ega. 1-bosqichda chiziqli regresiya asosida tashqi qarzning o'sishi qaysi valyutada jalb qilingan tashqi qarzning o'sishi ta'siri baholandi. Quyidagi chiziqli regyressiya tenglamasidan foydalanildi:

$$ED_{gr} = c + \alpha_i \sum_1^i countryED_{gr} + \varepsilon \quad (1)$$

Bunda: s-doimiy omillar; α_i -i mamlakat valyutasida jalb qilingan tashqi qarz va umumiy tashqi qarzning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsiyenti; ε — хатолик даражаси.

Tahlil natijalariga ko'ra, tashqi qarzni ortishida omillarning ta'sirini ($R^2=0.9888$) 98,8% aniqlay oladi va F-testi va unga tegishli p qiymat statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ifodaladi ($p<0.01$). Tashqi qarzni o'sish sur'atiga AQSH valyutasidagi tashqi qarzining ortishi eng yuqori ta'sir etgan, ya'ni AQSH valyutasida tashqi qarzni jalb etish 1 birlikka ortsa umumiy tashqi qarz 0,73 birlikka ortadi. Iyan, SDR va yevro valyutalarida jalb etilgan tashqi qarzlarning ortishi ham umumiy tashqi qarzni oshirishi mumkin ($p<0.05$). Xitoy yuani, Janubiy Koreya voni, qisman Saudiya Arabistoni rialida jalb qilingan tashqi qarz umumiy tashqi qarzni ortishiga sezilarli ta'sir etmaydi (1-rasm).

```
. regress dED dUSA dYaponiyan dSDR dYevro dChinayuan dKoreyavon dSAreal
```

Source	SS	df	MS	Number of obs =	23
Model	409.429417	7	58.4899168	F(7, 15) =	188.94
Residual	4.64356167	15	.309570778	Prob > F =	0.0000
Total	414.072979	22	18.821499	R-squared =	0.9888
				Adj R-squared =	0.9836
				Root MSE =	.55639

dED	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
dUSA	.7324203	.0358818	20.41	0.000	.6559401 .8089006
dYaponiyan	.0951866	.0171624	5.55	0.000	.0586058 .1317673
dSDR	.0645513	.0183933	3.51	0.003	.025347 .1037556
dYevro	.0587209	.0095842	6.13	0.000	.0382927 .0791491
dChinayuan	-.0029869	.0122272	-0.24	0.810	-.0290484 .0230747
dKoreyavon	.0256453	.0197099	1.30	0.213	-.0163654 .0676561
dSAreal	.0351046	.0167574	2.09	0.054	-.000613 .0708222
_cons	-.8236003	3.122326	-0.26	0.796	-7.47868 5.831479

1-rasm. Turli xorijiy valyutadagi tashqi qarzlarning o'sish sur'ati va tashqi qarzning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik tahlili natijalari

Diagnostic test natijalari ijobiy. Modelning to'g'riligi quyidagi diagnostik testlar asosida baholandi (1-jadval):

1-jadval. Diagnostik test natijalari

Multikolinarlik tahlili (VIF)	RamseyRESET testi	Qoldiq despersion tahlili	Durbin-Watson testi
O'rtacha VIF=2,3	F(3,12)=0,26 P-vaule (P>F)=0.8562	Chi²=0.04 P-value=0.8497	d=1.7895<2
Kuchli multikolinarlik mavjud emas	Hech qanday muhim o'zgaruvchi tashlab ketilmagan	Qoldiqlar dispersioni tasodifiy va barqaror	Autokorrelyatsiya deyarli yo'q

2-bosqichda, xorijiy valyutada tashqi qarzni jalb etishda milliy valyuta devalyatsiyasi, eksport hajmining ortishi, xorijiy valyuta rezervining ortishi va tashqi iqtisodiyotga bog'liqlik omillarining o'zaro ta'sirini baholash lozim. Davlat qarzi miqdoriga qarz foiz stavkasi, valyuta kursi, valyuta rezervi bilan sof eksport hajmining o'zgarishi va boshqa omillar ta'sir etadi. Davlat qarzi ichki va tashqi manbalardan (xalqaro tashkilotlar va



mamlakatlar) shakllanganligini hisobga olib, uning tarkibini milliy va xorijiy valyutada jalb qilingan qarzlarning yig'indisi sifatida hisoblash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, qaysi valyutaning almashinuv kursi barqarorligi, tashqi foiz stavkaning inflyatsiya va ichki foiz stavkadan past ekanligi davlat qarzining keskin oshib ketmasligiga ta'sir etadi. Tashqi qarz miqdorining valyuta tarkibini tahlil etish, ya'ni qaysi mamlakatning valyutasi barqaror va u bilan tashqi savdo saldosi ijobiy yoki salbiy ekanligi tashqi qarz miqdorini tebrantiradi. Bundan tashqari avvalgi davrdagi o'zgarishlar ham ta'sir etadi. Shu nuqayni nazardan dinamik ta'sir va endogenlikni hisobga olgan holda funksional modeli asosida quyidagi gipoteza baholandi:

H_0 -mamlakatlar o'rtasidagi tovar aylanmasida eksportning ulushi valyuta kusiga ta'sir etib, milliy valyuta devallusiyasi evaziga tashqi qarz miqdorining YAIMdagi ulushining kritik nuqtasidan og'ishiga ta'sir etadi..

$$\frac{ED}{GDP} = \frac{ED}{ER} * \frac{ER}{E} * \frac{E}{GDP} \quad (1)$$

Bu yerda: ED – tashqi qarz miqdori; GDP -nominal yalpi ichki mahsulot hajmi; ER -almashinuv

kursi; E -eksport hajmi; $\frac{ED}{GDP}$ – tashqi qarz miqdorining YAIMga nisbati; $\frac{ED}{ER}$ –

devalvasiya darajasining o'zgarishi evaziga tashqi qarz miqdori; $\frac{ER}{E}$ – eksport evaziga xorijiy valyuta zaxirasi;

$\frac{E}{GDP}$ – eksport kvotasini ifodalaydi.

(1) Tenglikni ikki tomonini natural logarifimlab va xosil bulgan funkciyadan xosila olsak funkciyani o'sish oralig'i kelib chiqadi.

$$(2) \Delta ED = c + \alpha_1 \Delta ER + \alpha_2 \Delta R + \alpha_3 \Delta XQ + \alpha_4 \Delta Z_{+e}$$

Bu yerda:

ΔD – tashqi qarzning o'zgarishi;

ΔER – devallvasiya darajasining o'zgarishi;

ΔR – xorijiy valyuta rezervining o'zgarishi;

ΔXQ – eksport kvotasining o'zgarishi;

ΔZ – foiz stavkasi va boshqa omillar

c -doimiy o'zgaruvchi;

e -tasodifiy xatolik;

$\alpha_{1,2,3,4}$ -regressiya koeffitsiyentlari.

(3) Tenglik O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzining valyuta tarkibidagi xorijiy valyutalar bo'yicha ham tuzildi. O'zaro bog'liqlik darajasi kichik kvadratlar testi va ikki bosqichli regresiya tenglamalari asosida tahlil etildi. Tahlil natijalari asosida jadval tuzilib qaysi xorijiy valyutada qarzni jalb etish foydaliligi qiyosiy tahlili asosida tanlandi. Tashqi qarz muddatlari turlicha ekanligini hisobga olgan holda 5 yillik davrdagi choraklik tebrantirishlar asosida statistik ma'lumotlar shakllantirildi. Valyuta kurslarining tebrantirishlarini me'yorlashtirish uchun har bir chorakning o'rtachasi hisoblanildi.

Ikki bosqichli regresiya tenglamasi tahlili (2SLS) va endogenlikning diagnostik testi natijari ko'ra tanlangan omillar o'rtasida endogenlik muammosi mavjud emas (Wu-Hausman testi natijasiga ko'ra $F(7,3)=1.37$, $p=0.4407$) va modelni bir bosqichli regresiya tenglamasi asosida tekshirish mumkin. Tashqi qarzning mos mamlakatning valyuta kursi, zaxirasi va eksport kvotasi ta'sirida o'zgarishini ifodalovchi bog'liqlik koeffitsiyentlarida (OLS) AQSH valyutasining devallvasiyasi, majburiy zaxiralari va eksport kvotasining ortishi umumiy tashqi qarzni ortishiga qolgan xorijiy valyutalarga nisbatan yuqori ta'sir etganligini ko'rsatdi.

Tashqi qarzni ortishida urganilgan valyuta kurslariga asosan Janubiy Koreyadan tashqari barchasida valyuta devallvasiyasining ta'siri mavjud. Yaponiya voni valyuta zaxirasining 1 birlik ortishi tashqi qarzni 0,48 birlikka kamaytirishi mumkin. Eksport kvotalari bo'yicha tahliliga ko'ra yevropa mamlakatlariga eksport hajmini oshirish tashqi qarzni ortishiga yuqori ta'sir etmaydi, jumladan Germaniyaga eksport kvotasining 1 birlikka ortishi tashqi qarzni 0,30 birlikka oshiradi va bu boshqalaridan kam ta'sirga ega. Diagnostik test natijalariga ko'ra model statistik jihatdan ahamiyatli ($Prob > F$, $p_{ortacha}=0.0074$) va model umumiy holatni 61,2%-99,7% oralig'ida ifodalaydi (2-jadval).



2-jadval. Tashqi qarzning xorijiy valyuta devalvasiyasi, zaxirasi va eksport kvotasi ta'sirida o'zgarishi modeli va diagnostik test natijalari

O'zgaruvchi-lar	AQSH	Yaponiya	Yevropa	Xitoy	Janubiy Koreya	Saudiya Arabistoni
ΔER	1.044384	1.382918	.5559672	.7658802	-.261089	.717844
ΔR	1.000957	-.484426	.2895556	.0112591	.5520482	.9519625
ΔXQ	.9847204	.9400377	.3056627	.992157	.6993992	.8275636
s	.2866616	.4204268	-2.11273	2.313383	4.509248	2.810821
R-squared	0.9974	0.9227	0.6116	0.7610	0.6823	0.8389
F-test	2428.50	75.62	1.22	20.17	13.60	32.98
Prob > F	0.0001	0.0101	0.0329	0.0001	0.0011	0.0002
Mean VIF	5.44	5.43	2.02	2.36	1.36	3.00
chi2(1)	0.06	0.11	19.40	0.15	0.04	0.11
Prob > chi2	0.8093	0.7419	0.7200	0.6993	0.8354	0.7455

Xalqaro valyuta fondining har bir mamlakat uchun yillik xavfsiz qarz chegaralari tahlili metodologiyasiga asoslanib yillik chegara (karz normasi/chegarasi) miqdorlari aniqlandi (3-jadval).

3-jadval. Xalqaro valyuta fondining har bir mamlakat uchun yillik xavfsiz qarz chegaralari¹

Ko'rsatkichlar	Kiritik ko'rsatkichlar, %da
Tashqi qarzning YAIMdagi ulushi, joriy narxlarda	30-40
Eksport tarkibida qarzga amalga oshirilgan xizmatlarning ulushi	15-20
Umumiy daromadlar tarkibida tashqi qarzning ulushi	200-250

4-jadval. Jalb etilishi foydali bo'lgan tashqi qarzning yillik chegara (karz normasi) miqdorini baholash bosqichlari

Bosqichlar	Xisoblash formulasi
1-bosqich. Kiritik ko'rsatkichni belgilash	$\frac{ED}{GDP}$ ThreshR= $\frac{ED}{GDP}$ *100%; Bu yerda: ThreshR-kritik ko'rsatkich, 40%; ED – tashqi qarz miqdori; GDP – YAIM hajmi
2-bosqich. Barqarorlikni saqlab qolish imkonini beruvchi qarz miqdorini aniqlash	SDS=ThreshR*GDP Bu yerda: SDS-barqarorlikni saqlab qolish uchun mumkin bo'lgan qarz miqdori
3-bosqich. Mavjud tashqi qarzlarni chegirish	NBS=SDS-CDS Bu yerda: NBS-jalb qilish mumkin bo'lgan sof qarz miqdori; CDS-mavjud tashqi qarz miqdori
4-bosqich. Yillik tashqi qarz jalb qilishning yuqori chegarasini aniqlash	NBSL _a =NBS-R Bu yerda: NBSL _a – yillik tashqi qarz jalb qilishning yuqori chegarasi; R-sundirilishi rejalashtirilgan tashqi qarz miqdori

1 <https://www.imf.org/en/Publications>



5-jadval. 2025 yil uchun hisoblangan tashqi qarz chegarasi, mlrd AQSH dollari

ThreshR	2025 yilning ikkinchi choragida tashqi qarz, mlrd. AQSH dollar	2025 yilning ikkinchi choragida YAIM, mlrd dollar	SDS	NBS	R	NBSL _a
1	2	3	4=3*1	5=4-2	6	7=5-6
40%	36,4	123,2	49,31	12,9	7,7	5,2

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar tashqi qarzning valyuta tarkibi uning dinamikasi va qarz barqarorligiga statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqladi. AQSH dollarida ifodalangan qarzlarning O'zbekiston umumiy qarzining o'sishiga eng katta hissa qo'shmoqda, boshqa valyutalar, jumladan yuan, von va rialdagi kreditlar esa sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Kurs o'zgarishlariga eng sezgir bo'lgan AQSH dollari va yevrodagi majburiyatlar bo'lib, bu devalvatsiya paytida qarzga xizmat ko'rsatish yukini oshiradi. Barqaror qarz olishning chegaraviy darajalarini hisoblash shuni ko'rsatdiki, tashqi qarzning ruxsat etilgan darajasi YAIMning 40 foizini tashkil etganda va 2025 yilga mo'ljallangan YAIMni hisobga olgan holda, O'zbekiston uchun yangi tashqi qarzlarning xavfsiz hajmi 5,2 mlrd AQSH doll. dollardan oshmasligi aniqlandi. Ushbu miqdordan oshish fiskal xatarlarning oshishiga va makroiqtisodiy barqarorlikka putur yetishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, AQSH dollarida ifodalangan kreditlar umumiy tashqi qarzning o'sishiga eng katta hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, Xitoy (yuan), Janubiy Koreya (von) va Saudiya Arabistoni (rial) kabi mamlakatlarning valyutalarida olingan qarzlarning statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Bu eksport tushumining katta qismi shakllanadigan valyutalarga e'tibor qaratish muhimligini ko'rsatadi. Bunday strategiya valyuta risklarini tabiiy yo'l bilan xedjirlash imkonini beradi.

Yuqori o'zgaruvchanlik va past tashqi savdo ahamiyatiga ega valyutalarda qarz olish ulushini cheklash. O'zbekistonning zaif eksport oqimi yoki yuqori kurs beqarorligiga ega bo'lgan valyutalar byudjetning devalvasion shoklarga nisbatan zaifligini oshiradi. Bu qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini va noaniq kurslarda qarz/YAIM nisbatining keskin o'sish xavfini oshiradi.

Valyuta muvofiqligi (currency matching) tamoyilini qo'llash. Tashqi qarz tarkibini rejalashtirishda qarz valyutasi bilan eksport tushumlari valyutasi o'rtasidagi nisbatni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu valyutalarning mos kelishi byudjetning devalvatsiyaga moyilligini kamaytiradi va qarz barqarorligini oshiradi.

Umumiy tashqi qarzni YAIMning 40 foizi darajasida cheklash. 2025 yil uchun YAIMni baholashdan kelib chiqib (123 mlrd). Yangi qarz olishning eng xavfsiz darajasi yiliga taxminan 5,2 milliard dollarni tashkil etadi. Ushbu chegaradan oshib ketish fiskal beqarorlik xavfini oshiradi va qarzga xizmat ko'rsatishni murakkablashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- Eichengreen, B., Hausmann, R. & Panizza, U. (2003). Currency Mismatches, Debt Intolerance and Original Sin: Why They Are Not the Same and Why it Matters. NBER Working Paper No. 10036.
- Eichengreen, B. & Hausmann, R. (1999). Exchange Rates and Financial Fragility. NBER Working Paper No. 7418.
- Hausmann, R. & Panizza, U. (2003). On the Determinants of Original Sin: An Empirical Investigation. Journal of International Money and Finance, 22(7), 957–990.
- Reinhart, C. M., Rogoff, K. S. & Savastano, M. A. (2003). Debt Intolerance. Brookings Papers on Economic Activity, 1, 1–74.
- Goldstein, M. & Turner, P. (2004). Controlling Currency Mismatches in Emerging Markets. Institute for International Economics.
- Jeanne, O. & Guscina, A. (2006). Government Debt in Emerging Market Countries: A New Data Set. IMF Working Paper 06/98. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2006/wp0698.pdf>
- Burger, J. D. & Warnock, F. E. (2006). Local Currency Bond Markets. Journal of International Economics, 70(1), 239–263.
- Fujii, E. (2015). External Debt and International Trade: Another Mismatch. CESifo Working Paper No. 5519.
- International Monetary Fund & World Bank. (2001/2014). Guidelines for Public Debt Management.
- Martinez, C. & Vergara, R. (2012). Fiscal Sustainability and the Impact of Exchange Rate Shocks. World Development, 40(9), 1762–1783.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>